XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 29 - dekabr VI-85-121-10-0-K/23 Toshkent viloyati hokimiligi

Toshkent viloyatining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 886-sonli qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 25- dekabrdagi 01/30-2-10352-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Toshkent viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i F.Xudoyberdiyevning, Toshkent viloyatining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida bergan hisoboti ma’umot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” 886-sonli qonuniga (keyingi o‘rinlarda qonun deb ataladi) muvofiq, Toshkent viloyati mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari 5 667 953,0 mln.so‘m va xarajatlari 6 185 306,4 mln.so‘m, respublika byudjetidan aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar 517 353,4 mln.so‘m prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Toshkent viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2025-2026-yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2024-yil uchun viloyat mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun viloyatning viloyat byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tumanlar va shaharlar byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy byudjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda viloyat Toshkent viloyati bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2024-yil uchun shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun viloyat byudjetidan tuman va shahar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2024-yil uchun viloyatning viloyat byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 24 732,6 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

Tumanlar va shaharlar byudjetlarining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Toshkent viloyati viloyat byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarini ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

9. 2024-yil uchun viloyatning viloyat byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 15 066,1 mln.so‘mni hamda tumanlar va shaharlar byudjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida

turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 8-ilovaga hamda yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar va tumanlar byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno);

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar.

b) viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

yer maydonlariga bo‘lgan mulk va ijara huquqini auksion orqali sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari;

davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiylashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

v) viloyat byudjeti hamda shahar va tumanlar byudjetlari o‘rtasida quyidagi soliq turlari bo‘yicha taqsimlanadi:

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno).

Shu bilan birga, Qonunga muvofiq viloyat mahalliy byudjetiga ajratma qilinadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 39 foizi;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning

to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 38 foizi miqdoridagi tushumlar viloyatning viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

g) Tamaki mahsulotlari, mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq shahar va tumanlar mahalliy byudjetlariga o‘tkazib beriladi.

Agar qonunchilikda mahalliy byudjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat byudjetiga o‘tkaziladi.

d) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-avgustdagi 6053-son farmoniga asosan Bo‘stonliq tumanida litsenziya va ruxsatnoma berishdan, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va ma’muriy huquq buzarliklar uchun jarimadan respublika va viloyat mahalliy byudjetiga tushadigan mablag‘lar va bojlar to‘liqligicha tuman mahalliy byudjetiga yo‘naltiriladi.

12. O‘zbekiston Respublikasi 2023-yil 25-dekabrda qabul qilingan “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 886-sonli Qonunga asosan 2024-moliya yilidan boshlab:

Quyidagilar tegishincha viloyat budjetidan hamda tumanlar va shaharlar budjetlaridan moliyalashtiriladi:

Soliq qo‘mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlardagi Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari;

sud boshqaruvchilari mehnatiga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar;

Quyidagilar viloyat byudjetidan moliyalashtiriladi:

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, sog‘liqni saqlash muassasalari obyektlarini loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta’mirlash va jihozlashga, shuningdek sug‘oriladigan yerlarining meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari doirasida obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta’mirlash hamda ta’mirlash ishlariga doir

xarajatlar;

kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarni saqlash xarajatlari.

Quyidagilar respublika byudjetidan moliyalashtiriladi:

kam ta’minlangan oilalarga bolalar nafaqalari va moddiy yordamlar to‘lash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining tizim tashkilotlarini (bolalar va mehribonlik uylari, voyaga yetmaganlar bilan ishlash sektorlari hamda oilaviy bolalar uylari) saqlash xarajatlari;

Suv omborlaridan foydalanish boshqarmalarini saqlash xarajatlari;

mahallalarni nodavlat notijorat tashkilot va byudjetdan mablag‘ oluvchi sifatida saqlash xarajatlari.

Hududlardagi barcha issiqlik bilan ta’minlovchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan organlarning hududiy bo‘linmalari xulosalariga ko‘ra, xalq deputatlari viloyat Kengashining qarorlari bilan ma’qullanganidan keyin viloyat hokimi tomonidan tasdiqlanadi.

Issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlarni (ta’riflarni) yil davomida qayta ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra issiqlik bilan ta’minlovchi korxonalar aholiga pasaytirilgan ta’riflar qo‘llanilishi natijasida ko‘rgan zararlarining o‘rnini qoplash uchun qo‘shimcha mablag‘larga bo‘lgan talab viloyat byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan qoplanadi.

13. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (Abdurasul Abdullayev), viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Furqat Xudoyberdiyev), Davlat soliq boshqarmasi (Alovitdin Inagamov), tuman va shahar hokimliklari va mas’ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

14. Viloyat davlat soliq boshqarmasi (Alovitdin Inagamov) Davlat soliq inspeksiyalari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

15. Viloyat davlat soliq boshqarmasi (Alovitdin Inagamov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi hamda tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq

hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

16. Majburiy ijro byurosi Toshkent viloyat boshqarmasi (Orif Bozorov) viloyat davlat soliq boshqarmasi (Alovitdin Inagamov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

17. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (Ziyodbek Yo‘ldoshev), tuman va shahar hokimliklari jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

18. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent viloyat hududiy boshqarmasi (Sardor Jumayev) Bo‘sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Toshkent viloyat hududiy boshqarmasi (Sanjar O‘razbayev) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini “ye-ijro auksion” maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirsin.

19. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent viloyat hududiy boshqarmasi (Sardor Jumayev), viloyat davlat soliq boshqarmasi (Alovitdin Inagamov), viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Furqat Xudoyberdiyev)

davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2024 yilning 1 iyuliga qadar 2023-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2024- yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi byudjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

20. Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi (Jo‘rabek Ismailov) tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

21. Viloyat “Chirchiq-Ohangaron” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘i (Baxtiyor Qurbonov) va viloyat davlat soliq boshqarmasi (Alovitdin Inagamov) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

22. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (Toxir Aripov), viloyat yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (Bahtiyor Nigmanov), Davlat xizmatlari agentligi viloyat boshqarmasi (Abdumutalib Dadajonov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

23. Davlat Moliyaviy nazorati Toshkent viloyat boshqarmasi (Canjar Xudoyberdiyev) Maktabgacha va maktab ta’limi va Sog‘liqni saqlash bosh boshqarmalarining Ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

byudjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti har chorakda eshitib borilsin.

24. Xalq deputatlari viloyat Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ko‘rib chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

25. Viloyat, tumanlar va shaharlar hokimliklari:

Tuman va shahar byudjetlari jami xarajatlarining kamida 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, viloyat, tuman va shahar Xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman (shahar) hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borsin.

26. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Abdurasul Abdullayev tuman va shahar hokimliklari, tegishli boshqarma boshliqlari:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

27. Viloyat hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

28. Toshkent viloyati hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi Behzod Kabulov mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va www.toshvil.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

27. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

28. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Muradjan Nasirov hamda viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Abdurasul Abdullayev zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari viloyat kengashi raisi **Z.Mirzayev**

Xalq deputatlari Toshkent viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-85-121-10-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Toshkent viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy prognoz va 2025-2026-yillarga maqsadli mo‘ljallari

T/r	Ko‘rsatkichlar	2024-yil uchun prognoz	Maqsadli mo‘ljallar	
			2025-yil	2026 yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘m	131 554,6	139 499,2	148 978,7
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	105,8	107,4	107,6
3.	Iste’mol narxlari indeksi,dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	111,2	111,1	111,0
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	106,0	109,7	109,8
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	104,2	106,3	106,9
6.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	117,4	114,3	114,5

Xalq deputatlari Toshkent viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-85-121-10-0-K/23-son qaroriga
2-ilova

Toshkent viloyati byudjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI		**4 411 857 395,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	286 942 110,0
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	166 656 100,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 150 453 650,0
4	Aksiz solig‘i jami	561 705 850,0
	shu jumladan:	
	-yakuniy iste’molchilarga benzin dizel yoqilg‘isi va gazni realizatsiya qilishdan aksiz solig‘i	*561 705 850,0*
5	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	42 474 000,0
6	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	310 182 700,0
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	570 168 500,0
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	118 847 100,0
9	Davlat bojlari	188 300 000,0
10	Jarimalar	278 726 000,0
11	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	38 727 950,0
12	Yig‘imlar	123 420 000,0
13	Davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiylashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar	57 900 000,0
14	Tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar (aksiz solig‘i tushumlari hisobidan o‘tkazib beriladigan daromadlar)	517 353 435,0

Xalq deputatlari Toshkent viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-85-121-10-0-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024-yil uchun Toshkent viloyati viloyat budjetidan birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Summa
	Xarajatlar miqdori, Jami	**4 411 857 395,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 794 379 026,0**
	shahar va tumanlar budjetlari tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar	**1 913 858 422,0**
	Ichki va tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari	**85 670 810,0**
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarning qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	**8 050 000,0**
	issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchilarga aholiga ko‘rsatilgan issiqlik ta’minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari	**77 381 000,0**
	issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	**3 880 977,0**
	sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	**31 900 000,0**
	avtobus yo‘nalishlarining yillik subsidiyalash xarajatlari	**9 041 760,0**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	**487 695 400,0**
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi**	**290 404 137,0**
	shu jumladan:	
	Maktabgacha ta’limi joriy xarajatlar	7 250 552,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	91 800 000,0

	shu jumladan:	
	Maktab ta’limi joriy xarajatlar	283 153 585,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	301 200 000,0
2	**Oliy ta’lim, Fan va inovatsiyalar vazirligi Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi**	**209 697 079,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	209 697 079,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**746 240 546,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	676 390 546,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	69 850 000,0
4	**Qishloq xo‘jaligi vazirligining hududiy bo‘linmalarida yer tuzish va monitoring vazifalari yuklatilgan xodimlarni saqlash xarajatlar**	**2 979 756,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 979 756,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Madaniyat boshqarmasi**	**31 000 039,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	31 000 039,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Yoshlar siyosati va sport boshqarmasi**	**78 225 564,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	78 225 564,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Biologik va agrokimyo laboratoriya stansiyalari**	**4 020 530,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	4 020 530,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Obodonlashtirish bosh boshqarmasi**	**22 766 781,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	22 766 781,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari**	**81 261 977,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	
	issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchilarga aholiga ko‘rsatilgan issiqlik ta’minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari	77 381 000,0
	issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	3 880 977,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi**	**14 894 145,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	14 894 145,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11	**O‘simliklar karantini hududiy inspeksiyasi**	**22 180 868,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	22 180 868,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**69 452 723,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	
	sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	31 900 000,0
	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	28 862 323,0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	8 690 400,0
13	**Transport boshqarmasi**	**10 728 670,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 686 910,0
	avtobus yo‘nalishlarining yillik subsidiyalash xarajatlari	9 041 760,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasining hududiy bo‘limlarini saqlash xarajatlari**	**205 934,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	205 934,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Yoshlar ishlari agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi**	**2 792 369,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 792 369,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16	**Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish boshqarmasi**	**9 522 986,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 522 986,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
17	**Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi**	**2 024 260 661,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 181 429,0
	Ichki va tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari	85 670 810,0
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarning qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	8 050 000,0

	shahar va tumanlar budjetlari tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	1 913 858 422,0
	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	7 500 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18	**G‘aznachilik boshqarmasi**	**14 181 461,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	14 181 461,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
19	**Pensiya jamg‘armasining hududiy boshqarmasi**	**14 573 820,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	14 573 820,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
20	**Turizm boshqarmasi**	**2 104 802,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 104 802,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
21	**Prezident devon arxivi**	**103 963,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	103 963,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
22	**O‘rmon xo‘jalik boshqarmasi**	**107 107 915,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	107 107 915,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
23	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi**	**15 383 076,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	15 383 076,0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
24	**O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi**	**1 539 069,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 539 069,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
25	**O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi**	**1 549 870,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 549 870,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
26	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**	**4 197 456,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 197 456,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
27	**Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi**	**15 954 833,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	15 954 833,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
28	**Viloyat Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi**	**11 501 038,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 501 038,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
29	**Adliya boshqarmasi**	**8 715 419,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	8 715 419,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
30	**Soliq boshqarmasi**	**37 773 913,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	37 773 913,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
31	**Viloyat hokimligi**	**48 521 873,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	48 521 873,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
32	**Kadastr boshqarmasi**	**2 959 578,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 959 578,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
33	**Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati**	**550 907,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	550 907,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
34	**Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspetsiyasining hududiy boshqarmasi**	**8 364 445,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 364 445,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
35	**Adliya vazirligi xuzuridagi Davlat xizmatlari agentligi Toshkent viloyati boshkarmasi (FXDYO)**	**2 938 644,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 938 644,0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
36	**Saylov komissisiyalari**	**68 587,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	68 587,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
37	**Nodavlat notijorat tashkilotlar**	**5 454 566,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 454 566,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
38	**Davlat arxivi boshqarmasi**	**3 750 216,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 750 216,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
39	**Mahallabay boshqarma**	**1 418 028,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 418 028,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
40	**Oila va xotin-qizlar boshqarmasi**	**1 311 969,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 311 969,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
41	**Boshqa xarajatlar**	**88 197 182,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	72 042 182,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	16 155 000,0

Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-85-121-10-0-K/23-son qaroriga
4-ilova

Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga ajratmalar meyori

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadi-gan foyda solig‘i	Yuridik shaxslar-ning mol-mulkiga solinadi-gan soliq	Yuridik shaxslar-dan olinadi-gan yer solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Aylanma-dan olinadi-gan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq hamda Bo‘stonliq tumani bundan mustasno)	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno)
1	Olmaliq shahri	5	5	10	20	10	30	20	100
2	Angren shahri	5	5	20	30	30	30	100	100
3	Ohangaron shahri	10	5	50	50	70	50	100	100
4	Bekobod shahri	5	5	10	20	10	30	75	100
5	Chirchiq shahri	10	5	5	5	5	30	100	100

6	Yangiyo‘l shahri	38	30	80	80	100	50	100	100
7	Ohangaron tumani	15	10	5	5	15	30	100	100
8	Bekobod tumani	38	39	100	100	100	50	100	100
9	Oqqo‘rg‘on tumani	38	39	100	80	100	30	100	100
10	Bo‘stonliq tumani	10	5	5	5	5	50	60	100
11	Bo‘ka tumani	38	39	100	80	100	30	100	100
12	Yuqori Chirchiq tumani	15	10	20	10	15	50	100	100
13	Quyi Chirchiq tumani	15	15	70	70	70	50	100	100
14	Zangiota tumani	5	5	5	10		30	100	100
15	Qibray tumani	5	5	10	5		30	50	100
16	Parkent tumani	38	39	80	80	80	50	100	100
17	Piskent tumani	38	39	10	10	30	30	100	100
18	O‘rta Chirchiq tumani	5	5	10	10	0	50	100	100
19	Toshkent tumani	5	5	15	10	10	50	100	100
20	Chinoz tumani	20	20	80	80	80	35	100	100
21	Yangiyo‘l tumani	10	10	20	10	20	50	100	100
22	Nurafshon shahri	10	10	50	50	50	40	100	100

Xalq deputatlari Toshkent viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-85-121-10-0-K/23-son qaroriga
5-ilova

Toshkent viloyatining shahar va tuman byudjetlarining 2024-yil daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
1	Olmaliq shahri	121 285 100,0	203 507 223,0
2	Angren shahri	103 417 250,0	243 448 142,0
3	Ohangaron shahri	48 567 450,0	98 102 674,0
4	Bekobod shahri	65 645 600,0	166 339 144,0
5	Chirchiq shahri	106 160 400,0	176 813 522,0
6	Yangiyo‘l shahri	68 031 000,0	134 921 486,0
7	Ohangaron tumani	75 602 150,0	137 852 037,0
8	Bekobod tumani	75 711 120,0	193 728 896,0
9	Oqqo‘rg‘on tumani	61 198 210,0	138 416 650,0
10	Bo‘stonliq tumani	104 697 800,0	201 286 224,0
11	Bo‘ka tumani	75 096 590,0	170 405 849,0
12	Yuqori Chirchiq tumani	81 077 200,0	147 616 909,0
13	Quyi Chirchiq tumani	73 656 050,0	152 653 414,0
14	Zangiota tumani	97 225 550,0	194 384 113,0
15	Qibray tumani	95 590 350,0	198 243 174,0
16	Parkent tumani	104 850 420,0	206 912 119,0
17	Piskent tumani	58 252 890,0	147 400 344,0
18	O‘rta Chirchiq tumani	53 529 300,0	116 794 029,0
19	Toshkent tumani	84 780 550,0	185 688 323,0
20	Chinoz tumani	73 289 700,0	174 317 195,0
21	Yangiyo‘l tumani	72 809 400,0	174 599 761,0
22	Nurafshon shahri	72 975 000,0	123 876 274,0

	JAMI	**1 773 449 080,0**	**3 687 307 502,0**

Xalq deputatlari Toshkent viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-85-121-10-0-K/23-son qaroriga
6-ilova

Toshkent viloyati shahar va tumanlar budjetlariga 2024-yilda viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	Ajratiladigan mablag‘	Shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan o‘tkazib beriladigan daromadlar
1	Olmaliq shahri	82 222 123,0	24 531 000,0
2	Angren shahri	140 030 892,0	30 888 000,0
3	Ohangaron shahri	49 535 224,0	7 056 000,0
4	Bekobod shahri	100 693 544,0	17 697 000,0
5	Chirchiq shahri	70 653 122,0	29 123 000,0
6	Yangiyo‘l shahri	66 890 486,0	14 254 000,0
7	Ohangaron tumani	62 249 887,0	18 895 000,0
8	Bekobod tumani	118 017 776,0	28 162 000,0
9	Oqqo‘rg‘on tumani	77 218 440,0	19 050 000,0
10	Bo‘stonliq tumani	96 588 424,0	30 153 000,0
11	Bo‘ka tumani	95 309 259,0	22 870 000,0
12	Yuqori Chirchiq tumani	66 539 709,0	23 677 000,0
13	Quyi Chirchiq tumani	78 997 364,0	19 771 000,0
14	Zangiota tumani	97 158 563,0	28 918 000,0
15	Qibray tumani	102 652 824,0	29 810 000,0
16	Parkent tumani	102 061 699,0	30 218 000,0
17	Piskent tumani	89 147 454,0	17 543 000,0
18	O‘rta Chirchiq tumani	63 264 729,0	23 247 000,0
19	Toshkent tumani	100 907 773,0	33 407 000,0
20	Chinoz tumani	101 027 495,0	24 651 000,0
21	Yangiyo‘l tumani	101 790 361,0	33 987 000,0

22	Nurafshon shahri	50 901 274,0	9 445 435,0
	JAMI	**1 913 858 422,0**	**517 353 435,0**

Xalq deputatlari Toshkent viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-85-121-10-0-K/23-son qaroriga
7-ilova

Toshkent viloyati viloyat, shahar va tumanlar byudjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Viloyat byudjeti	15 066 149,0
2	Olmaliq shahri	1 033 813,0
3	Angren shahri	1 388 681,0
4	Ohangaron shahri	494 199,0
5	Bekobod shahri	756 754,0
6	Chirchiq shahri	910 558,0
7	Yangiyo‘l shahri	648 355,0
8	Ohangaron tumani	610 638,0
9	Bekobod tumani	1 260 378,0
10	Oqqo‘rg‘on tumani	818 397,0
11	Bo‘stonliq tumani	980 522,0
12	Bo‘ka tumani	1 100 332,0
13	Yuqori Chirchiq tumani	880 144,0
14	Quyi Chirchiq tumani	900 031,0
15	Zangiota tumani	1 071 448,0
16	Qibray tumani	1 141 837,0
17	Parkent tumani	1 223 100,0
18	Piskent tumani	852 099,0
19	O‘rta Chirchiq tumani	714 931,0
20	Toshkent tumani	1 049 869,0
21	Chinoz tumani	974 589,0
22	Yangiyo‘l tumani	1 016 212,0
23	Nurafshon shahri	606 964,0
	JAMI	**35 500 000,0**

Xalq deputatlari Toshkent viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-85-121-10-0-K/23-son qaroriga
8-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2024-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun (so‘mda)	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun (so‘mda)
1	Bekobod tumani	1,05	38 850 000,0	1,05	349,7
2	Bo‘ka tumani	1,05	38 850 000,0	1,05	349,7
3	Bo‘stonliq tumani	1,45	53 650 000,0	1,40	466,2
4	Zangiota tumani	1,45	53 650 000,0	1,50	499,5
5	Yuqori Chirchiq tumani	1,40	51 800 000,0	1,40	466,2
6	Qibray tumani	1,40	51 800 000,0	1,40	466,2
7	Oqqo‘rg‘on tumani	1,05	38 850 000,0	1,15	383,0
8	Ohangaron tumani	1,05	38 850 000,0	1,05	349,7
9	Parkent tumani	1,05	38 850 000,0	1,15	383,0
10	Piskent tumani	1,05	38 850 000,0	1,15	383,0
11	Toshkent tumani	1,40	51 800 000,0	1,40	466,2
12	O‘rta Chirchiq tumani	1,40	51 800 000,0	1,40	466,2
13	Chinoz tumani	1,05	38 850 000,0	1,15	383,0
14	Quyi Chirchiq tumani	1,05	38 850 000,0	1,15	383,0
15	Yangiyo‘l tumani	1,30	48 100 000,0	1,15	383,0
16	Angren shahar	1,55	57 350 000,0	1,60	532,8
17	Bekobod shahar	1,40	51 800 000,0	1,40	466,2
18	Olmaliq shahar	1,55	57 350 000,0	1,60	532,8
19	Ohangaron shahar	1,40	51 800 000,0	1,40	466,2
20	Chirchiq shahar	1,55	57 350 000,0	1,60	532,8
21	Yangiyo‘l shahar	1,40	51 800 000,0	1,40	466,2
22	Nurafshon shahar	1,32	48 840 000,0	1,20	399,6

Xalq deputatlari Toshkent viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-85-121-10-0-K/23-son qaroriga
9-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent (mutloq miqdor)
1	Bekobod tumani	0,90
2	Bo‘ka tumani	0,90
3	Bo‘stonliq tumani	1,00
4	Zangiota tumani	1,10
5	Yuqori Chirchiq tumani	1,00
6	Qibray tumani	1,10
7	Oqqo‘rg‘on tumani	0,90
8	Ohangaron tumani	0,90
9	Parkent tumani	1,00
10	Piskent tumani	0,90
11	Toshkent tumani	1,00
12	O‘rta Chirchiq tumani	1,00
13	Chinoz tumani	0,90
14	Quyi Chirchiq tumani	0,90
15	Yangiyo‘l tumani	1,00
16	Angren shahar	1,00
17	Bekobod shahar	1,00
18	Olmaliq shahar	1,00
19	Ohangaron shahar	1,00
20	Chirchiq shahar	1,00
21	Yangiyo‘l shahar	1,00
22	Nurafshon shahar	1,10

Izoh: Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar bilan ishlash inspeksiyasi soliq to‘lovchilari

bundan mustasno.